



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 192 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	153
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	157
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	
Artificial Intelligence in Foreign Language Education: Enhancing Critical Thinking and Academic Communication Skills	164
<i>Allamuratov Gofur Ashurovich</i>	
Talabalarning bolalardagi ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.....	169
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	
Jamoaviy va yakkakurashchi professional sportchilar motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik farqlari	172
<i>Qaimova Gulmira Uchqun qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari.....	176
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Katta guruh tarbiyalanuvchilarida steam kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik va yoshga oid psixologik xususiyatlari.....	179
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari.....	183
<i>Yakubova Zilola Zikirovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining divergent fikrlashlarini rivojlantirish	187
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinoz Sadriddinovna</i>	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING DIVERGENT FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRISH

Adizova Nigora Baxtiyorovna
 BuxDPI professori, p.f.d. (DSc)

Akbarova Sarvinoz Sadriddinovna
 BuxDPI magistranti

Annotatsiya: Bizning tadqiqotimizda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining divergent tafakkurini shakllantirish masalasi yoritilganligi sababli, birinchi navbatda, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar tafakkurining rivojlanish jarayonini tushunish muhim hisoblanadi. Biz tanlagan mantiqdan kelib chiqib, avvalo, ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilingan "rivojlanish" tushunchasining mohiyatini aniqladik.

Kalit so'zlar: divergent, intellektual, konsepsiya, identifikatsiya, diqqat, idrok, assotsiatsiyalar jarayoni, tafakkur, assotsiatsiya, motiv, faoliyat, konvergensiya, reproduktiv, ijodiy fikrlash, mustaqil, evristik.

Abstract: Since our research is devoted to the development of divergent thinking among primary school students in extracurricular activities, it is important first to understand the process of thinking development in children of primary school age. Based on the logic of our study, we initially determined the essence of the concept of "development," which has received various interpretations in the scientific literature.

Key words: divergent, intellectual, concept, identification, attention, perception, association process, thinking, association, motive, activity, convergence, reproductive, creative thinking, independent, heuristic.

Аннотация: Поскольку наше исследование посвящено формированию дивергентного мышления младших школьников во внеурочной деятельности, прежде всего важно понять процесс развития мышления детей младшего школьного возраста. Исходя из выбранной нами логики исследования, мы прежде всего определили сущность понятия "развитие", которое в научной литературе имеет различные трактовки.

Ключевые слова: дивергентный, интеллектуальный, концепция, идентификация, внимание, восприятие, процесс ассоциаций, мышление, ассоциация, мотив, деятельность, конвергенция, репродуктивный, творческое мышление, самостоятельный, эвристический.

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda ikkita asosiy bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi bosqich (taxminan 1- va 2-sinflardagi ta'lim davriga to'g'ri keladi)da o'quv materialini tahlil qilish asosan ko'rgazmali-amaliy va hissiy shaklda amalga oshiriladi. Xulosalar idrokda berilgan ko'rgazmali obrazlarga asoslanadi. Xulosalarni asoslash mantiqiy dalillar asosida emas, balki hukmning qabul qilingan ma'lumotlar bilan bevosita bog'liqligi orqali amalga oshiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida kichik yoshdagi o'quvchida mavjud bo'lgan umumlashtirish, tahlil va sintez qilish ko'nikmalari ma'lum darajada qayta shakllanadi.

Alohida obyektlar majmuasidan umumlashma mohiyatan o'zaro bog'langan xususiyatlar tizimiga aylanadi, bunda individual jihatlar ajralib chiqadi va xususiy umumiyga bo'ysunadi. Bu shuni anglatadiki, mazkur bosqichda kichik yoshdagi o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan umumlashtirishlar funksional xususiyatlarga asoslanib, obyekt va hodisalarning yuzaki, aniq idrok etilgan belgilarini mustahkamlaydi.

Bola tafakkurida fan sohalarini tasniflashda (o'simliklar sistematikasi, hayvonlar sistematikasi va boshqalar) muhim rol o'ynaydigan umumiy va xususiy tushunchalar hamda mavhumlashtirishning tegishli shakllari alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, induksiya va deduksiya shakllanadi, tahlil va sintez esa rivojlanishning yangi yo'nalishlarida davom etadi. Kichik maktab o'quvchisining aqliy faoliyati tasodifiy bog'lanishlardan muhimroq bog'lanishlarni anglashga o'tadi. Shu bilan birga, tafakkurning cheklanganligi asosan tashqi hissiy xususiyatlar va belgilar bilan bog'liq holda saqlanib qoladi, ya'ni ko'proq yoki kamroq muhim aloqalargina anglanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy bilimlar kichik maktab o'quvchilarining tafakkuriga mos bo'lib, aniq faktlarni bilish, ularni tasniflash, tizimlashtirish va empirik jihatdan tushuntirishga asoslanadi. Tafakkur rivojlanishining ushbu bosqichida nazariy tushuntirishlar, mavhum nazariyalar va murakkab mavhum qonuniyatlarni to'liq anglash imkoniyati hali yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Tasavvur va tushunchaning birligida tasavvur hali ham ustun mavqeni egalaydi. Yosh maktab o'quvchisining tafakkuri, unga xos tushunchalar, mulohazalar va xulosalar rivojlanishning ushbu bosqichida yangi tuzilishga ega bo'ladi. Maktab ta'limining dastlabki bosqichida bilimlar tizimining boshlang'ich asoslarini o'zlashtirayotgan kichik yoshdagi o'quvchilar mavhum tafakkur olamiga kirib boradilar. Ular umumlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengib, bir vaqtning o'zida umumiydan xususiyga va xususiydan umumiyga qarab fikrlashni o'rganadilar.

Muayyan alohida holatga hamda o'zlashtirilgan bilimlarning ayrim elementlariga tayangan holda o'quvchi maxsus tushunchalarni shakllantiradi va keyingi umumlashtirishlar asosida yanada mazmunli xulosalarga keladi. Biz kichik yoshdagi o'quvchilarning umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirish ularning ilmiy tushunchalar mazmunini o'zlashtirishga qaratilgan aqliy faoliyatining ham zarur sharti, ham natijasi ekanligini ta'kidlaydigan olimlar fikriga qo'shilamiz.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari tomonidan turli tushunchalarning o'zlashtirilish darajasi mazkur tushunchalardagi umumlashtirish darajasi, ularning yaqin yoki uzoqligi, ko'rgazmalilik darajasi hamda vositalilik xususiyatlariga bog'liqdir. Munosabatlar tizimini ifodalovchi tushunchalarni o'zlashtirishda sezilarli qiyinchiliklar yuzaga keladi. Kichik maktab o'quvchilari tomonidan qo'llaniladigan umumlashtirishlarning nomukammalligi va ilmiy bilimlarning konseptual mazmunini to'liq anglay olmaslik holatlari psixologik-pedagogik adabiyotlarda ham qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik maktab o'quvchisi tafakkurini rivojlantirishning asosiy yo'nalishi tushunchalarning mazmunini ochib beruvchi ta'riflarning tobora obyektiv va vositali tus olishi bilan namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar, xususan, E. Barnsning ishlari, boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurida yuz beradigan sifat o'zgarishlarini ko'rsatadi. U maqsadga yo'naltirilgan ta'riflar soni asta-sekin kamayib, mantiqiy ta'riflar soni ortib borishini aniqlagan. Boshqa tadqiqotlar ham kichik maktab o'quvchilari orasida mantiqiy ta'riflarning soni maqsadli ta'riflar hisobiga ko'payishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, empirik materialga asoslangan ta'riflar eng mukammal hisoblanadi, murakkab mavhum tushunchalarga oid ta'riflar esa hali yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Maqsadga muvofiq ta'riflardan so'ng umumiy tushuncha orqali xususiyatlarni sanab o'tishga asoslangan ta'riflar qo'llaniladi. Bunday ta'riflar rasmiy mantiqiy ta'riflarga yaqinlashadi. Ayrim olimlarning fikricha, ushbu ta'rif turi asosan 7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar orasida ustunlik qiladi. Ta'limning to'rtinchi yiliga kelib mavhum tafakkurning rivojlanishi natijasida misollar yordamida ta'riflashning ahamiyati sezilarli darajada kamayadi.

Yosh maktab o'quvchilarining fikr-mulohazalarini rivojlantirishda bilim doirasining kengayishi va voqelikka nisbatan ongli munosabatning shakllanishi muhim rol o'ynaydi. O'qitishning dastlabki bosqichida mavzuni bilish darajasi chuqur bo'lmaganligi sababli, nufuzli manbadan olingan har qanday ma'lumot osonlik bilan haqiqat sifatida qabul qilinadi. Biroq mavzuni anglash chuqurlashib, ong rivojlangan sari kichik yoshdagi o'quvchilar o'z hukmlarining haqqoniyligini mustaqil baholay boshlaydilar.

Kichik maktab o'quvchilarining tafakkuri voqelikning aniq faktlariga qiziqishning ustunligi bilan tavsiflanadi. Aniq faktlar ularning intellektual qiziqishlari markazida bo'lib, mulohazalarining mazmuni va tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. Ularda muhim o'rinni "mavjudlik hukmlari" va "fikrlash hukmlari" egallaydi. "Tushuncha hukmlari" esa asosan "voqelik hukmlari" (assertorik hukmlar), nisbatan zaif muammoli hukmlar hamda o'zgarmas haqiqatni ifodalovchi hukmlar (apodiktik hukmlar) orqali namoyon bo'ladi. Yosh o'quvchi murojaat qiladigan dalillar ko'pincha misollar va o'xshatishlarga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tizimli o'quv faoliyati ta'sirida 3-sinfga kelib, kichik yoshdagi o'quvchilarning tafakkur xususiyatlari o'zgaradi. Uning rivojlanishining ikkinchi bosqichi aynan shu o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, tushunchalarning individual xususiyatlari o'rtasidagi umumiy munosabatlarni o'zlashtirish, ya'ni tasniflash jarayonida namoyon bo'ladi. Kichik maktab o'quvchilari o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarning alohida elementlari o'rtasidagi aloqalarni hamda tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni ko'pincha ko'rgazmali tasvirlar va tavsiflar orqali anglaydilar. Ikkinchi bosqichning oxiriga kelib, ko'pchilik kichik yoshdagi o'quvchilar aqliy tahlil va sintez asosida ilgari to'plangan tasavvurlarni umumlashtira oladilar.



Ko'rgazmali elementlarning ahamiyati kamayib boradi, obyektlarning muhim aloqalari va munosabatlarini ifodalovchi hukmlar soni esa ortadi. Analitik-sintetik faoliyatning natijasi mavhum hukm yoki umumlashtirilgan bilim sifatida namoyon bo'ladi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili yosh o'quvchilar tafakkuri aloqalarni aniqlash va hodisalarga izoh berish qobiliyatiga ega emasligi haqidagi keng tarqalgan qarashlar yetarlicha asoslanmaganligini ko'rsatadi. Yosh o'quvchilar uchun aloqalarni o'rnatish va har qanday tasodifni ishonchli tushuntirish sifatida qabul qilish nisbatan osondir. Ko'pincha tasodifiy va subyektiv bo'lgan bog'lanishlar hech qanday tekshiruvsiz umumiy qonuniyat sifatida qabul qilinadi. Biroq yosh o'quvchilar asta-sekin tasavvur qilinishi mumkin bo'lgan narsalarni real voqeelikdan ajratishni hamda o'z fikrlarini gipoteza sifatida ko'rib chiqishni o'rganadilar. Natijada hali tasdiqlanishi lozim bo'lgan taxminlar hukm chiqarish, asoslash va xulosa qilish jarayonlariga kiritiladi.

Kichik maktab o'quvchilarining ta'limning boshlang'ich bosqichidagi tafakkurida yuz beradigan sifat o'zgarishlari tafakkur rivojlanishining yangi bosqichidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ushbu bosqichning ma'lum chegaralari ham mavjud. Jumladan, aqliy operatsiyalar ko'pincha yaqin faktlarni taqqoslash doirasidan tashqariga chiqmaydi, murakkab vositali bog'lanishlar tizimini anglash esa hali qiyinchilik tug'diradi. Narsa, hodisa va jarayonlar haqidagi turli tushunchalar bilan ishlash natijasida kichik maktab o'quvchilarining tafakkuri tushunchalarni ularning xususiyatlari va o'zaro munosabatlari orqali anglashga tayyorlanadi. Shunday qilib, tafakkur rivojlanishining keyingi bosqichiga o'tish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Bu imkoniyatlar kichik yoshdagi o'quvchilarning nazariy bilimlar tizimini puxta o'zlashtirishlari orqali ro'yobga chiqadi.

Maqolada divergent tafakkurning shakllanishi boshlang'ich maktab yoshida sodir bo'lishi haqidagi qarash asos qilib olinganligi sababli, avvalo, "shakllanish" tushunchasining mohiyatini aniqlash zarur. Biz "shakllanish" tushunchasini ta'lim va tarbiya jarayonida erishilgan natijalarni hamda shaxsning ichki va tashqi tuzilishidagi o'zgarishlarni ifodalovchi hodisa sifatida talqin qiluvchi yondashuvga tayanamiz. Ichki impulslar ta'sirida yuzaga keladigan rivojlanishdan farqli ravishda, shakllanish rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirishning ichki kuchlarini rag'batlantiruvchi tashqi ta'sirlarning rolini ifodalaydi.

Boshlang'ich maktab yoshida kognitiv faollik yetakchi o'rin egallaydi. D.B. Elkoninning ta'kidlashicha, yetakchi faoliyat shaxs rivojlanishining muayyan bosqichida shakllanadigan va differensiallashadigan boshqa faoliyat turlarining rivojlanishini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, ijodkorlik va divergent fikrlash ham ta'lim faoliyati ta'sirida shakllanadi, deb hisoblash mumkin. Divergent fikrlash ko'nikma va malakalarning muntazam kengayib borishi natijasida rivojlanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar asta-sekin tanish obyektlar bilan yangicha tarzda ishlashni, ularni yangi aloqalar tizimiga kiritishni o'rganadilar. Bundan tashqari, ta'lim faoliyati mazkur fikrlash turini intellektual va aqliy salohiyatni faollashtirish nuqtai nazaridan boyitadi.

V.N. Kelasyevning tadqiqotlarida kichik maktab o'quvchilari intellektning kognitiv tashkil etilishida nisbatan mustaqil uchta quyi tizim mavjudligi qayd etiladi. Ularda intellektning proyektiv infratuzilmasi omillari namoyon bo'ladi: perseptiv ijod omili, dinamik omil va ijtimoiy ijodkorlik omili. Ushbu infratuzilmaning asosiy vazifasi vaziyatning dastlabki kognitiv modelini uning fazoviy yoki vaqt jihatidan rivojlanishi, ya'ni ziddiyatlarni anglash bilan muvofiqlashtirishdan iboratdir.

O'quv faoliyati kichik maktab o'quvchilaridan doimiy faollikni talab qiladi. Bu esa ularning kuzatuvchanlik, tasavvur, diqqat, xotira kabi aqliy qobiliyatlari hamda shaxsning barqaror irodaviy sifatlarining jadal rivojlani-shiga olib keladi. Mazkur sifat va xususiyatlar majmui ijodkorlik hamda divergent fikrlashning asosini tashkil etadi. Boshlang'ich maktab yoshida aqliy jarayonlar o'rtasidagi bog'lanishlar hali to'liq tizimlashmagan bo'lsa-da, asta-sekin barqarorlashib boradi. Bu jarayon asosan tasavvur va kognitiv motivatsiyaga tayanadi. Ushbu bosqichdagi ijodkorlikning mazmuni o'quv materialini va kichik yoshdagi o'quvchilarning kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lib, ular o'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi tomonidan turli nuqtai nazarlardan tahlil qilinadi va kuzatib boriladi.

Divergent fikrlashning shakllanishiga o'quv faoliyati vositalarining bosqichma-bosqich tashkil etilishi ham yordam beradi. O'quv jarayoni rivojlanib borgan sari kichik yoshdagi o'quvchilar barcha e'tiborini faqat yozish, o'qish va hisoblash amallariga qaratib qolmaydilar. Ushbu operatsiyalar asta-sekin avtomatlashib, ularning psixik faoliyatiga singib ketadi va natijada mavhum tushunchalar bilan ishlash imkoniyati paydo bo'ladi. Masalan, birinchi sinf oxiriga kelib, o'quvchilar avval egallagan bilim va ko'nikmalaridan murakkabroq muammolarni hal qilish vositasi sifatida foydalanishni boshlaydilar.

Shundan kelib chiqib, boshlang'ich maktab yoshida divergent fikrlash prosessual komponent bilan shaxsiy-regulyativ komponent o'rtasidagi ichki bog'liqlik asosida shakllanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu jarayon bolalarning mustaqilligi ortib borishi bilan yanada kuchayadi.

XULOSA

Kichik yoshdagi o'quvchilar ijodkorligining o'ziga xos xususiyati faoliyat mahsulining subyektiv yangiligida namoyon bo'ladi. Obyektiv nuqtai nazardan "kashfiyot" yangi va noodatiy bo'lishi mumkin, biroq u o'qituvchining ko'rsatmasi yoki yordami asosida amalga oshirilgan bo'lsa, mohiyatan ijodiy faoliyat mahsuli hisoblanmasligi

mumkin. Shu bilan birga, kichik yoshdagi o'quvchilar amaliyotda allaqachon ma'lum bo'lgan, biroq tayyor nusxa ko'chirmasdan, mustaqil xulosa va mulohazalar asosida ishlab chiqilgan yangi yechimlarni ham taklif qilishlari mumkin. Bunday holatda biz taxmin, sezgi va mustaqil fikrlashga tayanuvchi haqiqiy ijodiy jarayon bilan yuzma-yuz kelamiz. Bu yerda nostandart vazifalarni hal qilish qobiliyatini shakllantiruvchi psixologik mexanizm alohida ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida divergent fikrlashni shakllantirishning yana bir muhim jihati mavjud. U ijro mahorati hamda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishdan ajralmasdir. O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalari qanchalik ko'p qirrali va mukammal bo'lsa, tasavvurlari shunchalik boy, g'oyalari shunchalik real bo'ladi. Natijada ular yanada murakkab va ijodiy vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Альтшуллер, Г.С. Найти идею: Введение в теорию решения изобретательских задач [Текст] / Г.С. Альтшуллер; отв. ред. А.К. Дюнин; СО АН СССР. – 2-е изд., испр. и доп. – Новосибирск: Наука. Сиб. отделение, 1991. – 224 с. – (Наука и технический прогресс).
2. Богоявленская, Д.Б. Психология творческих способностей [Текст]: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Д.Б. Богоявленская. – М.: Академия, 2002. – 320 с.
3. Вяткин, Л.Г. Самостоятельная работа учащихся на уроке [Текст]: лекция по педагогике для студентов университета / Л.Г. Вяткин. – Саратов: Изд-во Саратов. ун-та, 1978. – 25 с.
4. Горенков, Е.М. Проблемы рационального использования внеурочного времени сельскими школьниками [Текст]: автореф. дис. ... канд. пед. наук / Е.М. Горенков. – М., 1973. – 24 с.
5. Загвязинский, В.И. Методология и методы психолого-педагогического исследования [Текст]: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений / В.И. Загвязинский, Р.К. Атаханов. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.